

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA QIYOSIY VA
CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI**

**O'ZBEK, RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA BAYRAM
KONSEPTINING O'RGANILISHI**

D.Ganiyeva, filologiya fanlari doktori, O.Baxromova, FarDU magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada biz asosan o'rganilayotgan o'zbek, rus va ingliz tilshunosligida bayram konseptining o'rganilishi, tadqiqi haqida so'z yuritdik va tahlil qildik.

Tayanch so'z va iboralar: konsept, tushuncha, konseptosfera, bayram, nishonlash, kontekst.

Аннотация

В данной статье мы обсудили и проанализировали изучение, исследование и исследование концепта праздника в узбекском, русском и английском языкознании.

Ключевые слова и выражения: концепт, понимание, концептосфера, праздник, празднование, контекст.

Abstract

In this article, we discussed and analyzed the study, research, and research of the holiday concept in Uzbek, Russian, and English linguistics.

Key words and expressions: concept, understanding, conceptosphere, holiday, celebration, context.

Kognitiv lingvistika sohasi inson ongidagi bilim, tushunchalar, konseptlarni va ularning turlari muammolarini o'rganadi. Tilshunos olimi V.A.Maslovaning

ta'kidlashicha, "Kognitiv tilshunoslikning maqsadi dunyoni idrok etish, turkumlashtirish, tasniflash va tushunish jarayonlari qanday amalga oshirilishini, bilimlar qanday to'planishini, qanday tizimlar turli faoliyat turlarini axborot bilan ta'minlashini tushunishdir" [1, 8]. Shunday ekan, til voqelikni anglash va ongimizdagi fikrlarimizni amalga oshirish imkonini beradi.

Bizga ma'lumki, inson so'zning ma'nosini murakkab holatda tushunishga ba'zida o'zida o'zining dunyoqarashiga ko'ra talqin qiladi (bunda o'zining shaxsiy tajribasiga yoki yashash muhiti va kasbi ta'sir qilishi mumkin). Bundan xulosa qilish mumkinki, tushunchalar umumiy holatda konseptlar yig'indisini tashkil qiladi.

Tushunchalar ifodalanish jihatidan har bir millatning madaniyati va lingvistikasi rivoji uchun juda muhimdir. Tilshunos D.S.Lixachevning izlanishlari natijasiga ko'ra, bu "madaniyatning o'ziga xos konsentratsiyasi – madaniyat, millat va uning aholining turli qatlamlarida shaxsgacha timsolidir. Milliy tilning kontseptual sohasiga asoslanib, biz millat madaniyatini baholashimiz mumkin" [2, 164-165]. Har bir so'zning ifodalab berish usuliga ko'ra tushunchalarning har xil turlari klassifikatsiya qilinadi: leksik, sintaktik, so'z yasovchi va frazeologik. So'zlarning ushbu jihatlarini o'rganib tadqiq qilish uchun biz turli xil konseptlarni namuna sifatida ko'rib chiqishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotimizda biz "bayram" konseptining ingliz, rus va o'zbek tillaridagi tahlilini ko'rib chiqamiz.

Rus tilshunosligida yana bir olim N.M.Shanskiy tomonidan to'plangan etimologik lug'at tarkibida "bayram" (праздник) so'zining kelib chiqishi qadimgi cherkov slavyan tiliga borib taqalishining guvohi bo'lamiz, bu so'z праздн (ya'ni "bayram") so'ziga -ик qo'shimchasini qo'shish yordamida tuzilgan. "Празднѣй" so'zi slavyan tilidagi -porzdn so'zidan olingan bo'lib, ushbu so'z tarkibidagi -n aslida bu so'zning qo'shimchasi hisoblanadi [3]. Bundan ko'rinib turibdiki, "праздник" so'zi ma'no jihatidan "ishdan ozod" deb tarjima qilinishi mumkin.

Shu kabi tadqiqotchilardan yana biri V.I.Dal o‘zi ishlab chiqqan izohli lug‘atda “праздник” so‘ziga “ish” ma’nosini emas, aksincha, “dam olishga bag‘ishlangan kun” degan izohni berib o‘tgan [4].

Keyinchalik “праздник” so‘zi boshqa ma’nolarda ham qo‘llanila boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. Bu so‘z o‘yin-kulgilar kuni; voqea bilan belgilangan baxtli kun, quvonchli kun, omadli kun ma’nolarini ham ifodalay boshladi. Ko‘plab izohli lug‘atlarda yuqorida qayd etilgan ma’nolardan tashqari, “biror narsadan olingan zavq, yoqimli, quvonchli tuyg‘u, shuningdek, zavq, shodlik manbai” ma’nosini ham uchradi [5, 25].

“Праздник” so‘zining semantik jihatidan asl ma’nolari asosan quyidagilardan iboratdir: sana, ishlaymaydigan kunlar, o‘yin-kulgi / quvonch, shodlik kabilardir. Shuningdek, “bayram” so‘zi shaxsiy ma’noda “inson uchun muhim kun, yoqimli voqeani ifodalovchi kun” ma’nosida ham ifodalaniladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, rus lingvistik sferasida “праздник” konsepti turli kontekstlarda bir necha ma’nolarni ifodalay olishi mumkin.

Izlanishlar asosida biz bayram har bir madaniyat uchun qanchalik muhim hodisaligini ko‘rishimiz mumkin. Ingliz adabiyotida, turli xil kitob va darsliklarda esa aynan shu madaniyatgagina xos bo‘lgan bayram kunlarini ko‘rishimiz mumkin.

Ingliz tilida “bayram” so‘zini ifodalovchi “holiday” so‘zining etimologiyasi qadimgi inglizcha “haligdaeg” (“halig”- muqaddas + “daeg” - kundan) ga borib taqaladi [7:174]. Dastavval, “holiday” so‘zi diniy marosimlarga bag‘ishlangan kun ma’nosida ishlatilgan.

Bayram nomlari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, Buyuk Britaniyada asosan oltita davlat bayramlari mavjud: Rojdestvo kuni (Christmas Day), Boks kuni (Boxing Day), Yaxshi juma (Good Friday), Pasxa dushanbasi (Easter Monday), bahorgi bank bayrami (Spring bank holiday) va yoz oxiridagi bank bayrami (Last Summer bank holiday). Buyuk Britaniyada bank bayramlari deb ataladigan kunlar banklar va

boshqa muassasalarning yopilishi bilan belgilanadi. Bank bilan bog‘liq bo‘lgan bayramlar nafaqat Buyuk Britaniyada, balki, Irlandiyada ham davlat bayramidir. Pasxa va Rojdestvo bayramlari esa asosan diniy bayramlar bo‘lib, ayni paytda davlat bayramlari hisoblanadi. Din bilan bog‘liq yana boshqa bayramlar ham mavjud: Avliyo Patrik kuni va Avliyo Devid kuni (St. Patrick’s Day and St. David’s Day). Ingliz xalqlarining diniy yoki ommaviy bo‘lmagan, biroq yuqoridagi bayramlar singari keng miqyosda nishonlanuvchi bayramlari ham bor: Muqaddas Valentin kuni (St.Valentine's Day), Onalar yakshanbasi (Mothering Sunday), Hellouin (Halloween), Hazil kuni (April Fool’s Day) va boshqalar. Shunday qilib, ingliz xalqida “bayram” so‘zining asl izohi bu uydan uzoqda dam olish yoki ishdan to‘xtash vaqtini ifodalaydi. Shuningdek, bayram (holiday)ning yana bir izohi diniy yoki milliy bayramlar tufayli ishga borish kerak bo‘lmagan kundir. Demak, ingliz tilidagi “Holiday” so‘zi ham rus tilidagi “Праздник” so‘zi singari “Та’til” ma’nosida qo‘llana oladi.

O‘zbek millatida “bayram” so‘zi asosan muhim tarixiy, milliy yoki diniy voqea sharafiga nishonlanadigan bayramlar kuni sifatida qo‘llaniladi. O‘zbek xalqi asosan, bayramlarda oilaviy yoki yaqinlar bilan birga yigilib to‘planishni va birgalikd nishonlashni yaxshi ko‘radi.

O‘zbek xalqida asosan 9 ta davlat bayramlari bor: Yangi yil, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Navro‘z, Xotira va qadrlash kuni, Mustaqillik kuni, O‘qituvchi va murabbiylar kuni, Konstitutsiya kuni, diniy Ramazon hayiti va Qurbon hayiti. Bayram kunlari odamlar ishga borishmaydi (hozirgi kunda bayram arafasi va bayram kunlari ham ta’til berilmoqda). O‘zbek bayramlarining o‘ziga xos tarixi bor. Mustaqillikka erishguncha o‘zbek xalqi dinimizga aloqasi bo‘lmagan bayramlarni, ya’ni Yangi yil va Xalqaro xotin-qizlar kunini qabul qilgan, biroq ba’zi diniy bayramlar (Navro‘z yoki Hayit) deyarli unutilgan. Lekin bugungi kunga kelib, ko‘plab diniy va tarixiy bayramlar qaytarilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish zarurki, ingliz, rus va o‘zbek xalqarida “bayram” so‘zini ifodalovchi konseptlar bir vaqtning o‘zida turli xil ma’nomalarni ifodalaydi va kontekstdagi o‘rniga ko‘ra ma’lum bir qolipga solinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику. М., 2006.
2. Лихачев Д. С. Концептосфера русского языка. //Русская словесность: от теории словесности к структуре текста: антол. / Ин-т народов России [и др.]; под общ. ред. В. П. Нерознака. С. 147–165.
3. Шанский Н. М., Иванов В. В., Шанская Т. В. Краткий этимологический словарь русского языка. 3-е изд. М., 1975.
4. Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. В 4-х тт. Т. 3. М.: Рипол классик, 2006. 549 с.
5. Толковый словарь русского языка/ под редакцией Д. Н. Ушакова. В 4-х тт. Т. 3. М., 1947–1948.
6. Словарь современного русского литературного языка (БАС). В 17 томах. Т.11. М.: АН СССР, 1950–1965.
7. О. Kasymova*, V. Generozova / Structural organization of the concept “holiday”//, Доклады Башкирского университета. 2017. Том 2. №2
8. Graddol D. English Next. 3rd edition. Oxford: OUP, 2010.
9. Ergasheva, E., & Ganiyeva, D. (2023). LINGUISTIC TERMS RELATED TO PROFESSIONALISM. Наука и технология в современном мире, 2(15), 4-8
10. Axmadaliyeva Gulmira., THE CONCEPT OF “FEAR” AND ITS STUDY, Involta, 2022, p 96-98.